NNTlarning qonunchilikka oid imkoniyatlari



O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning imkoniyatini ta’minlovchi qonunchilik bazasi yaratildi. Uning poydevorini O‘zbekiston Konstitutsiyasining fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan XIII bobi tashkil etadi.



Konstitutsiyaning 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi” deb belgilangan. Ushbu norma fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini tartibga soladi. Shunday ekan, bir qancha davlat funksiyalari bosqichma-bosqich ushbu institutlarga yuklanmoqda.

Masalan, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilmoqda. Shuningdek, davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari jamoat nazoratini o‘rnatishi belgilanmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlarni tashkil etish va ularning faoliyat erkinligini kafolatlovchi “O‘zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi[1], “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi[2], “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi[3], “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi[4] qonunlarni alohida qayd etish joiz.

Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Ularni qo‘llab-quvvatlash uchun huquqiy va institutsional baza yaratildi.

Mamlakatda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishga munosib hissa qo‘shgan nodavlat notijorat tashkilotlar vakillarini rag‘batlantirish maqsadida “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun”[5] ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi[6] tashkil qilindi. Aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar sonining dinamikasiga e’tibor qaratsak, 1991-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikada 95 ta NNT faoliyat ko‘rsatgan, 2000-yilning 1-yanvariga kelib ular 2585 taga, 2016-yil 1-yanvarda esa 8417 taga yetgan, hozir esa 10 mingta.

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarning 40 foizi ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarni himoya qilish bo‘yicha, 14,2 foizi ayollar va yoshlar muammolari, 13,6 foizi sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya sohasi bo‘yicha faoliyat olib bormoqda. 12

[1] https://www.lex.uz/acts/111825.
[2] https://www.lex.uz/acts/11360.
[3] https://lex.uz/docs/1101278.
[4] https://lex.uz/acts/2468214.
[5] https://lex.uz/docs/4060213.
[6] https://lex.uz/ru/docs/4789926.

foizi esa boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajaradi.

Aytish joiz, nodavlat notijorat tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash va samaradorligini ta’minlash uchun zarur infratuzilma yaratilgan. Xususan, mamlakat parlamenti huzurida Nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mavjud.

Nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining va Senati kengashining 2008-yil 10-iyuldagi qarori bilan tashkil etilgan.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston qonunlari va o‘zining nizomiga asosan faoliyatini olib boradi.



OLIY MAJLIS HUZURIDAGI JAMOAT FONDI:

- O‘zbekiston Respublikasining davlat budjetidan, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan olinadigan mablag‘larni jamlaydi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularga huquqiy maslahat, tashkiliy, texnik va boshqa xil yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq dasturlar hamda loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashadi.



O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2019-yil 4-oktabrdagi “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati uchun qulay sharoit yaratdi. Tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirgan holda soddalashtirdi.

Mamlakatda 2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi[7] tasdiqlandi. NNTlarning huquqiy kafolatlarini ta’minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish vazifalari belgilandi. Hujjatda fuqarolik jamiyati institutlarini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo‘llab-quvvatlash hajmini 2025-yilda 1,8 baravarga oshirish va mablag‘ ajratish miqdorini 70 milliard so‘mga yetkazish belgilangan.

Ushbu konsepsiyaning 2-bobida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalish qilib fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun sharoit

[7] https://lex.uz/uz/docs/5319756.

yaratish, davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash kabi normalar belgilandi.

O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 26-avgustda “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[8] farmoni qabul qilindi.

Farmonda Oliy Majlis, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i kengesi hamda mahalliy kengashlar huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlarini qo‘shib yuborish va ularning negizida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo‘linmalarini tashkil etish nazarda tutilgan.



Fond mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolaridan iborat komissiya tuziladi. 2024-yil 1-oktabrdan 2027-yil 1-oktabrga qadar fond mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari loyihalari uchun soliq stavkalari 50 foizga kamaytirildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar sonining dinamikasiga e’tibor qaratsak, 1991-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikada 95 ta NNT faoliyat ko‘rsatgan, 2000-yilning 1-yanvariga kelib ular 2585 taga, 2016-yil 1-yanvarda esa 8417 taga yetgan, hozir esa 10 mingta.

Bular quyidagi ikki soliq turi:

- loyihaga mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomalari asosida jalb qilingan mutaxassislarning daromad solig‘i;
- nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mehnatga haq to‘lashga doir xarajatlari bo‘yicha to‘lanadigan ijtimoiy soliq.

O‘rnatilgan tartibga muvofiq bank hisobvaraqlarida pul aylanmagan jamoat fondlari faoliyatini yilda bir auditorlik tekshiruvidan ixtiyoriy tartibda o‘tkazadi.

Har yili vazirlik va idoralar fuqarolik jamiyati institutlariga budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish bo‘yicha tanlovlar tashkil etadi.

Shu bilan birga, har yili kamida bir marta vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan sohaviy va hududiy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkaziladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari davlat ijtimoiy buyurtmasini olish uchun manfaatdor davlat organiga tashabbusli loyiha taklifini kiritadi. Tashabbusli loyihani jamoatchilik kengashi ijobiy baholagan taqdirda, ijtimoiy buyurtma uchun shartnoma tuziladi.

Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanadi. Har yili jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligi baholanadi. Natijalari e’lon qilinadi.

O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi raisiga Qonunchilik palatasi va uning qo‘mitalari majlislarida nodavlat notijorat tashkilotlarning vakili sifatida ishtirok etish huquqi berilmoqda.

Umuman olganda, oxirgi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha sezilarli chora-tadbirlar ko‘rildi.

Yuqorida eslangan farmon va qonunlar NNTlarning o‘rni va ahamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuxrat ABDUXALIMOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

[8] https://www.lex.uz/en/docs/7083841.